

KIMYO FANINI SAMARALI O'QITISHDA DEDAKTIK USULLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Kurbanova Dilafroz Sobirovna

O'qituvchi, Jizzax politexnika instituti

Boytemirov Xurshid Mamadiyor o'g'li

Talaba, Jizzax politexnika instituti

Raxmatov Samandar Mamarasul o'g'li

Talaba, Jizzax politexnika instituti

Annotatsiya: Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati bo'lib, o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, zarur xulosalarga kelishga, tahlil qilish va olingan bilimlarni amaliyatga qo'llashga o'rgatadi. O'qituvchining zimmasidagi vazifa esa, o'quvchilarga aniq yo'nalish berish, to'g'i xulosalarni aytishdan iborat. Bu metodlar yana shunisi bilan ahamiyatliki, o'qituvchi o'quvchining fikrini hech qachon keskin rad etmaydi, to'xtatmaydi va ular o'rtaida doimiy faollilik ta'minlanadi.

Kalit so'zlar: Tarbiyaviy maqsad, didaktik o'yinlar, ishchanlik o'yini, interfaol usullar.

**Важность использования дидактических методов в эффективном
преподавании химии**

Курбанова Дилафруз Собировна

Преподаватель, Джизакский политехнический институт

Бойтемиров Хуриид Мамадияр огли

Студент, Джизакский политехнический институт

Рахматов Самандар Мамарасул огли

Студент, Джизакский политехнический институт

Аннотация: Интерактивные методы – это совместная деятельность ученика и преподавателя, которая учит учащихся творчески мыслить, приходить к необходимым выводам, анализировать и применять

полученные знания на практике. Задача преподавателя – дать четкое направление ученикам и сказать правильные выводы. Эти методы важны еще и тем, что преподаватель никогда не отвергает и не перебивает мнение ученика, между ними обеспечивается постоянная активность.

Ключевые слова: Учебная цель, дидактические игры, деятельностная игра, интерактивные методы.

The importance of using didactic methods in effective teaching of chemistry

Kurbanova Dilafroz Sobirovna

Teacher, Jizzakh polytechnic institute

Boytemirov Xurshid Mamadiyor ogli

Student, Jizzakh polytechnic institute

Raxmatov Samandar Mamarasul ogli

Student, Jizzakh polytechnic institute

Abstract: Interactive methods are a joint activity between a student and a teacher, which teaches students to think creatively, come to the necessary conclusions, analyze and apply the acquired knowledge in practice. The teacher's task is to give clear direction to students and make the right conclusions. Interactive methods are also important because the teacher never rejects or interrupts the student's opinion, and constant activity is ensured between them.

Key words: Educational goal, didactic games, activity game, interactive methods.

Ta'lim muassasalarida tayyorlanuvchi mutaxassislar ma'naviy xislatlari va umumkasbiy salohiyatidan tashqari, avvalo muayyan tanlangan sohaning chuqur bilimdoni bo'lishi ham lozimdir. Buni amalga oshirish uchun talabalar tafakkurini faollashtiruvchi va chuqurlashgiruvchi, shuningdek, ilmiy-o'quv axborotining uzatish jarayonini jadallashtiruvchi va samaradorligini oshiruvchi faol ta'lim texnologiyalari ishlab chiqilishi va amaliyatga keng ko'lamda joriy qilinishi lozim bo'lib qoldi.

Har bir darsda, uning maqsadidan kelib chiqqan holda aniq dasturlar qo'llanishi mumkin. O'quv jarayonida samarali foydalaniladigan dasturiy vositalar kasbiy kimyo o'qitishga mos bo'lishi, yuqori darajadagi ko'rgazmalilikka, foydalanishga oson, umumo'quv va tajribaviy ko'nikmalarini shakllantirishiga, bilimlarni umumlashtirish va chuqurlashtirish imkoniyatlariga ega bo'lishi kerak [1]. Tadqiqotlarning natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarni o'z kasbiga bo'lgan qiziqishini oshirishda yangi axborot texnologiyalari, xususan pedagogik dasturiy vositalarning roli katta. Pedagogik dasturiy vositalarni o'quv jarayonida maqsadga muvofiq bo'lgan metodika asosida qo'llash bo'lajak pedagoglarni va boshqa mutaxassislikka oid kurslar bo'yicha amaliy bilimlarini mustahkamlash bilan birgalikda yangi axborot texnologiyalariga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Yuqoridagi fikrlar asosida kimyo darslarini har doim an'anaviy tarzda emas, ba'zan noan'anaviy tarzda tashkil etish yaxshi natija beradi. Masalan, dars boshlanishida o'quvchilarga kartochka-topshiriq va shu topshiriqqa oid model (krossvord yoki skanvord, rebuslar tuzish ham mumkin) tarqatib chiqiladi.

Topshiriqni birinchi bo'lib bajargan o'quvchilar baholar orqali rag'batlantirilishi e'lon qilinadi.

Kimyoga oid qiziqarli masalalarga krossvord, rebus va ijobiy izlanishga undaydigan masalalarni kiritish mumkin. Bunda o'quvchilarni zeriktirmaslikka, kimyo atamalaridan so'z boyligini oshirish va tez fikrlashga o'rgatadi. Kimyoga oid rebusni tuzishga turmushda uchraydigan va o'quvchilarga ma'lum bo'lgan ob'ektlar, shakllar yoki tasvirlarni tanlash maqsadga muvofiq.

O'quvchilarni fanga qiziqtirish, darsda qiziqarli masalalar va didaktik o'yinlardan unumli foydalanib faol o'quv-biluv jarayonini vujudga keltirish orqali o'quvchilarning grafik tayyorgarligi darajasini oshirish va kasbiy shakllantirish mumkin.

Kimyodan yaratilgan o'yin dasturlari o'quvchilarda o'quv motivatsiyasini shakllantirishga, ijodiy fikrlashga, mustaqil ishslash va bilim boyligini oshirishga xizmat qiladi.

Kimyodan kompyuter o'yinlarini ishlab chiqish texnologiyalari quyidagi bosqichda amalga oshiriladi:

- O'quvchilarning o'zlashtirishida murakkab bo'lgan mavzu tanlab olinadi.
- O'yining maqsadi va sharti aniqlab olinadi.

Ta'limiylar maqsad – o'yin davomida o'quvchi mavzunining mohiyatini to'liq tushunib oladi.

Tarbiyaviy maqsad - o'quvchilarda kuzatuvchanlik, ziyraklik, ogohlilik, topqirlilik va estetik did kabi fazilatlarni tarbiyalaydi.

Rivojlantiruvchi maqsad – o'quvchining fazoviy tasavvur qilish, mantiqiy fikrlash va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ishchanlik o'yini darsi – dars mavzusi bo'yicha masalalarni hal etish jarayonida o'quvchilarning faol ishtirok etishini ta'minlash orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish mashqi.

Rolli o'yin darsi - dars mavzusi bo'yicha masalalarni o'rganishda o'quvchilarga Idindan ma'lum rollarni taqsimlash va dars jarayonida shu rolni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarni mustahkamlash darsi.bu usulni asosan element, kimyoviy belgi mavzusida qo'llash yaxshi samara beradi. 7-sinf o'quvchilari element belgisi haqida, ham element xossasi haqida tushunchaga ega bo'ladi

Teatrlashtirilgan dars – dars mavzusi bilan bog'liq sahna ko'rinishlarini tashkil etish orqali dars mavzusi bo'yicha chuqur, aniq ma'lumotlar berish darsi. Kompyuter darsi – tegishli o'quv fani bo'yicha dars mavzusiga doir kompyuter materialllari(multimedia, virtual o'quv kursi va shu kabilalar) asosida o'tiladigan dars.

Kim oshdi savdosi darsi – o'quv fani ayrim bo'limi bo'yicha bilimlarni har bir o'quvchi qanchalik ko'p bilishini namoyish etish darsi.

Formulalar darsi – o'quvchilarning formulalarni puxta o'zlashtirishlari bo'yicha turli o'yinlar shaklidagi mashqlar o'tkazish darsi.

"Mo'jizalar maydoni" darsi – o'quvchilar bilan o'tkaziladigan qiziqarli o'yin

bo'lib, turli savollarga belgilangan vaqt davomida to'g'ri javoblar topish va g'oliblarni rag'batlantirish orqali o'quvchilarda fikrlash, topqirlik, ziyraklik va bilimlarini kengaytirib borish sifatlarini shakllantiradi.

Didaktik o'yinlar tashkilotchilari ular uchun ishlataladigan har bir material bilan ishlash, ulardan tegishli didaktik vositalarni tayyorlash hamda xavfsizlikni ta'minlash texnologiyalarini puxta bilishlari va rioya qilishlari lozim. Chunki didaktik vositalarning sifati, ko'zda tutilgan maqsadlariga mosligi, qulayligi va ulardan to'g'ri foydalanish mashg'ulotlar samaradorligini oshirishga ijobiyligi ta'sir ko'rsatadi.

Maktabda har bir o'qituvchi ayrim turdag'i didaktik o'yin mashg'uloti o'quv materiallarini amalda qo'llash uchun tayyorlashini tashkil qilish metodik faoliyatning ajralmas qismi hisoblanadi.

Foydalailgan adabiyotlar

1. Sobirovna, K. D., Abdijalil o'g'li, K. R., & Khudoykul o'g, J. R. J. (2023). A general Approach to The Buffer Function and Buffer Behavior. *International Journal of Scientific Trends*, 2(2), 149-152.
2. Muminova, M., & Kurbanova, D. (2023). ADSORBENTLARNING TASNIFI VA TURLARI. *Академические исследования в современной науке*, 2(2), 119-124.
3. Kurbanova, D., & Bobomurodova, S. (2023). СИММ-ДИХЛОРЭТАН (1, 2-ДИХЛОРЭТАН) ДАН ВОДОРОД ХЛОРИД АЖРАЛИШ РЕАКЦИЯСИНИНГ КИНЕТИК ҚОНУНИЯТЛАРИНИ АНИҚЛАШI. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(12 Part 2), 178-188.
4. Kurbanova, D., Fayzullaev, N., & Bobomurodova, S. (2023). Determination of optimal conditions and kinetic laws of hydrogen chloride separation reaction from simm-dichloroethane (1, 2-dichloroethane). In *E3S Web of Conferences* (Vol. 460, p. 10028). EDP Sciences.

5. Fayzullaev N. et al. Obtaining vinyl chloride by oxychlorination of ethylene under the action of hydrogen chloride in the presence of oxygen //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 460. – C. 10023.
6. Kurbanova D. et al. MODDALARNI XROMOTOGRAFIYA USULIDA ANALIZ QILISH //Экономика и социум. – 2023. – №. 1-2 (104). – C. 69-73.